



O'RTA OSIYO MUTAFAKKIRLARINING PEDAGOGIK QARASHLARI.

Qolandarova Dilafruz Karimovna

UrDPI Pedagogika fakulteti "Boshlang'ich ta'lim metodikasi"
kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11081893>

ARTICLE INFO

Received: 24th April 2024

Accepted: 25th April 2024

Published: 29th April 2024

KEYWORDS

Pedagogika, tarbiya, ta'lim, nazariy va amaliy jihatlar, o'qituvchi shaxsi, tajribali mutaxassis, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya.

Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi - ma'naviyatdir. Bu yangi O'zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita muntazam ustunga, ya'ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanamiz.

Sh.M.Mirziyoyev [1]

Bugungi kunda biz mamlakatimizda inson erkin va farovon yashaydigan jamiyat qurish uchun qat'iyat bilan harakat qilmoqdamiz. Qanday qiyinchilik va sinovlarga duch kelmaylik, shu maqsadda boshlagan barcha islohotlarimizni, qabul qilgan dasturlarimizni izchil davom ettirmoqdamiz.

Tan olishimiz kerak, jamiyatimiz hayotining barcha soha va tarmoklari qatori ma'naviy-ma'rifiy ishlarimizda ham hali yechimini kutib turgan, o'zgarishlar shamoli kirib bormagan masalalar oz emas. Yangi hayot, yangi jamiyat qurishga qaratilgan islohotlar jarayonida bu ishlarining nazariy asosi bo'lgan milliy g'oyani rivojlantirish ayniqsa, g'oyat muhim ahamiyatga ega. [1.2]

Yangi ming yillikda dunyoda ro'y bergan barcha muhim ijtimoiy o'zgarishlar ijtimoiy hayot sohasida, odamlar ongida o'chmas iz qoldirdi. Axborot-kommunikatsiya aloqalarining keskin o'sishi, millatlararo va konfessiyalararo munosabatlarning keskinlashuvi, ekologiya muammosi, bularning barchasi dunyoni idrok etish to'g'risidagi buzilgan g'oyalarni, shaxsiy o'zini o'zi qadrlash inqirozini keltirib chiqardi. Zamonaviy inson muammolarning murakkabligini darhol hal qila olmaydi, hayotning turli sohalarida va turli xil bilim sohalarida joylashgan hodisa va jarayonlar o'rtasidagi aloqalar va o'zaro ta'sirlarni tushunib,

muqaddaslashtirmaydi. Oliy ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar har doim ham to'g'rilik va fundamentallik g'oyalariga tayanmaydi.[2]

“ Ilm - narsalarni inson aqli yordami bilan o'rganishlikdir”. Agar o'quvchi birga o'qisa, u zerikmaydi, fanni egallashga qiziqish yuzaga keladi, bir-biridan qolmaslik uchun harakat, musobaqalashish istagi rivojlanadi. Bularning hammasi o'qishning yaxshilanishiga yordam beradi.

Sharqning buyuk siymolaridan biri - qomusiy olim, mutatakkir, tabib, faylasuf, shoir Abu Ali Ibn Sino (980-1037-yillar) bo'lib, u Yevropada Avitsenna nomi bilan mashhurdir. Ibn Sino Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilgan, iste'dodli, xotirasi kuchli, zehni o'tkir bo'lganligidan o'z davrida ma'lum bo'lgan ilmlarni tez egallagan. U 16 yoshdayoq mashhur tabib - hakim bo'lib tanildi va keyinchalik "Olimlar" boshlig'i, "Tabiblar podshohi" kabi eng buyuk nomlarga sazovor bo'ldi.

Odamlarniig botiri mushkulotdan qo'rqmaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo'rqog'idir.

Ibn sino aporlarining umumly soni 450 dan oshadi, biroq bizgacha faqat 160 ga yaqin asari yetib kelgan. Uning, ayniqsa, "Tib qonunlari" asari XII asrdayoq lotin tiliga tarjima qilinib, 800 yil davomida G'arb mamlakatlari universitetlarida asosiy qo'llanma bo'lib keigan va hozir ham bir qancha tibbiy o'quv yurtlarida o'rganiladi.

U fanlarning juda ko'p jiddiy muammolarini to'g'ri hal qilish shular asosida juda ko'p ilmiy asarlar yaratgan ulkan donishmanddir. U falsafa, ijtimoiyot, tarix va boshqa fanlarning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

Ibn Sino pedagogika masalalariga ijobiy qaradi. Olimning bolani tarbiyalash va o'qitish sohasidagi ko'pchilik fikrlari chuqurligi, insonparvarligi va tarbiya masalalarining murakkabligi bilan hayratda qoldiradi. Ibn Sino o'z tarbiya sistemasiga o'rta asr "yetti ozod san'at" sistemasidan farq qiladigan: odob, astronomiya, tibbiyot, mantiq, falsafa, tabiatshunoslik, til va uning grammatikasi, musulmon qonunshunosligi fanlarini kiritadi.

Ibn Sino tavsiya qilgan tarbiya va ta'lim o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1. Aqliy tarbiya
2. Jismoniy sog'lomlashtirish (davolash ham shunga xizmat qiladi).
3. Estetik tarbiya.
4. Axloqiy tarbiya.
5. Mehnat tarbiyasi (hunarga o'rgatish)

Ibn Sino bolani maktabda o'qitish va tarbiyalashga katta ahamiyat beradi. U o'zining "Tadbiri ma'nozil" asarida bu masalaga maxsus bo'lim bag'ishlaydi. "Bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash" («Omo'zish va parvarish madrasaz farzand) bo'limida birinchi navbatda bolalarni maktabga jalb qilishga to'xtaladi. Uning ta'kidlashicha, maktabga barcha kishilarning bolalari tortilishi kerak. Barcha bolalar birga o'qitilishi va tarbiyalanishi lozim. U bolani uy sharoitida yakka o'qitishga qarshi edi.

Uning fikricha, bolani maktabda kollektiv o'qitish quyidagicha foyda beradi:

1. Agar o'quvchi birga o'qisa, u zerikmaydi, fanni egallashga qiziqish yuzaga keladi, bir-biridan qolmaslik uchun harakat, musobaqalashish istagi rivojlanadi. Bularning hammasi o'qishning yaxshilanishiga yordam beradi.
2. O'zaro suhbatda o'quvchilar bir-biriga kitobdan o'qib olganlarini, kattalardan eshitganlarini himoya qiladilar.

3. Bolalar birga to'planganlarida bir-birlarini hurmat qila boshlaydilar, do'stlashadilar, o'quv materiallarini o'zlashtirishda bir-birlariga yordamlashadilar, bir- birlaridagi yaxshi odatlarni qabul qiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.M.Mirziyoyev " Insonparvarlik,ezgulik va buyodkorlik-milliy g'oyamizning poydevoridir". USK 323(575.1) KBK 66.3(5Uzb) .Toshkent: "TASVIR" nashriyot uyi, 2021. – 36 b
2. "Pedagogika". Yu K. Babanskiy tahriri ostida "Ma'rifat", Moskva, 1983. Kitob ba'zi qisqartmalar bilan berilgan.
3. Petrov, V. D. „Ibn Sina-velikiy sredneaziatskiy ucheniy ensiklopedist.“ Abu Ali Ibn Sina. Kanon vrachebnoy nauki. Tashkent, 1981
4. *Avicenna and the Visionary Recital* (en), 2016 04.19. [ISBN 9780691630540](#). „In this work a distinguished scholar of Islamic religion examines the mysticism and psychological thought of the great eleventh-century Persian philosopher and physician Avicenna (Ibn Sina), author of over a hundred works on theology, logic, medicine, and mathematics.“

